



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G‘I

**O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi
Ma’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ–4307-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021-yil 19-yanvar kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining videosektor tarzida o‘tkazilgan majlisning 3-son bayoni ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid, xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rahbar-xodimlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda ularga yaqindan ko‘maklashish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma’naviyat va ma’rifat kengashi Nizomi 2-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma’naviyat va ma’rifat kengashining Reglamenti 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Har yili Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilib, tasdiqlanadigan Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi tizimini yaratish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat kengashining ish rejasi sifatida qabul qilinsin.

3. Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari hamda hududiy bo‘linmalari boshliqlari, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari “yo‘l xaritasi” - Vazirlik Ma’naviyat va ma’rifat kengashining ish rejasida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlashga shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4. Kengash kotibi – Vazir maslahatchisi (N.Abdullayev) tizimda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini doimiy ravishda monitoring qilib borsin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov

Toshkent sh.
2023-y., 27-oktabr
283-son

Raqamli texnologiyalar vazirligining
2023-yil 27-oktabrdagi 283-son buyrug'iga
1-ILOVA

**Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi
TARKIBI**

1.	Sh. Shermatov	–	Raqamli texnologiyalar vaziri, Kengash raisi
2.	O. Pekos	–	Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari, Kengash raisi o‘rinbosari
3.	J. Maxsudov	–	Raqamli texnologiyalar vaziri o‘rinbosari, Kengash raisi o‘rinbosari
4.	R. Karimjonov	–	Raqamli texnologiyalar vaziri o‘rinbosari, Kengash raisi o‘rinbosari
5.	D.Rustamov	–	Raqamli texnologiyalar vaziri maslahatchisi, Kengash raisi o‘rinbosari
6.	J.Egamberdiyev	–	Raqamli texnologiyalar vaziri maslahatchisi, Kengash raisi o‘rinbosari
7.	K. Sabirova	–	Raqamli texnologiyalar vaziri maslahatchisi
8.	A. Ishanxodjaev	–	O‘zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi
9.	E. Rasulov	–	Vazir kotibiyati boshlig‘i
10.	F.Anvarov	–	Vazirning yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi
11.	I.Turaev	–	Ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i
12.	Sh.Axmatov	–	Axborot xizmati boshlig‘i
13.	M.Chulliyeva	–	Inson resurslarini rivojlantirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i
14.	N.Abdullayev	–	Kengash kotibi, Vazir maslahatchisi

Izoh: Kengash raisi, o‘rinbosarlari yoki a‘zolari, shuningdek, kotibi boshqa lavozimga o‘tgan yoki lavozimidan ozod qilingan taqdirda ularning o‘rniga tayinlangan xodimlar yoki ularning o‘rnini bosuvchi xodimlar kengash tarkibiga kiritilgan hisoblanadi;

Kengashi kotibi ovoz berish huquqiga ega emas va u Kengashning tashkiliy masalalarini amalga oshiradi hamda Kengash bayoni yuritilishini ta’minlaydi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi
Ma'naviyat va ma'rifat kengashi
NIZOMI

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) mustaqil, o'z-o'zini boshqaruvchi nodavlat notijorat, noyuridik organ bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydi.

U o'z safida Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan tasdiqlangan rais, uning o'rinbosarlari, kotib hamda Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalari boshliqlari hamda kollegial organlar rahbar va a'zolarini birlashtirishi mumkin. Bundan, lavozim majburiyatlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan tashqari qo'shimcha majburiyatlar yuklash mumkin emas, deb ko'rsatilgan xodimlar mustasno.

2. Mazkur Nizom Vazirlik tizimidagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalarga (keyingi o'rinlarda – Vazirlik tizimidagi tashkilotlar) nisbatan, agar qonun hujjatlarida boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, tatbiq etiladi.

3. Kengash Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalarida, shuningdek, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar jamoatchilik asosida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlash hamda bu boradagi chora-tadbirlarni samarali tashkil etishda ko'maklashish uchun tashkil etiladi. Kengash yuridik shaxs hisoblanmaydi.

4. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ushbu Nizom asosida amalga oshiradi.

5. Kengash tarkibi a'zolardan tashkil topib, ular tomonidan Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalari, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbar-xodimlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va mafkuraviy immuniteti, jamoadagi ijtimoiy-ma'naviy muhit masalalari ko'rib boriladi.

6. Kengash o'z faoliyatida qonuniylik, ma'rifiylik, oshkoralik, ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillariga amal qiladi.

Kengash o'z maqomiga ko'ra, Vazirlik tizimining barcha yo'nalishlari va muassasalarida azaliy ma'naviy qadriyatlarimizni, milliy tarbiyaviy merosimiz va an'alarimizni, ajdodlarimizning tarbiya sohasida erishgan ilg'or tajribalarini hamda zamonaviy tarbiya texnologiyalarini uyg'unlashtirish va ommalashtirish, yoshlar tarbiyasi masalalari bo'yicha mas'uliyatini, faolligini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tadbirlarni tashkil qiladi va ularda ishtirok etadi.

7. Kengashning to'liq rasmiy nomi: **Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi.**

8. Kengash faoliyatining muddati cheklanmagan.

9. Kengashning asosiy ishini Vazirning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili qonun hujjatlariga rioya etilishi masalalari bo'yicha maslahatchisi tashkil etadi va Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosi ta'minlanishi bo'yicha nazoratni olib boradi.

2-BOB. Kengashning maqsad va vazifalari

10. Kengashning asosiy maqsadi Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalari, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbar-xodimlari o'rtasida xalqimizga xos odob-axloq me'yorlariga mos, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat kabi tushunchalarni keng targ'ib qilish, ular o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muntazam ravishda amalga oshirish orqali yuksak ma'naviyatli kadrlarni tarbiyalashga ko'maklashish, jamoalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish hamda uning mustahkamligini ta'minlash, rahbar va xodimlardagi mafkuraviy immunitetni oshirishga doir ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirishdan iborat.

U Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalari, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida turli taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalari, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbar-xodimlarining ma'naviy-axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyatini oshirishning samarali tizimini yaratish, ularda vatanparvarlik, yuksak axloqiy fazilatlar, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, daxldorlik va o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish, mamlakat taqdiri, uning mustaqilligini mustahkamlashda mas'ullik tuyg'ularini shakllantirish ishlariga rahbarlik qiladi.

Shuningdek, ularning ma'naviyati, ma'rifati va madaniyatiga doir ishlarning samaradorligi va natijadorligini yanada oshirishga, tizimdagi ma'naviy yuksalishni ta'minlashga ko'maklashadi.

11. Kengash quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini ta'minlash, xodimlar o'rtasida yuksak axloqiy fazilatlarni targ'ib qilishda Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalari, shuningdek, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalarga uslubiy-amaliy yordam ko'rsatish;

barcha darajadagi rahbar-xodimlari o'rtasida insonparvarlik va mehr-oqibat asosida o'zaro hurmatni yanada oshirish, ijtimoiy, siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash usullarini ishlab chiqish hamda joriy qilishga ko'maklashish, umumiy rahbarlik qilish va nazoratini olib borish;

ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullarning kasbiy malakasini oshirish yo'nalishida faoliyat yurituvchi tashkilotlar bilan doimiy aloqalar o'rnatish va hamkorlik qilish;

jahon va davlatimizning milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganib, tatbiq etishga ko'maklashish;

milliy ma'naviyat, tarix, san'at, urf-odatlar va an'analarni ommalashtirishga bag'ishlangan tadbirlar, turli ko'rik-tanlovlar tashkil etish va o'tkazishdagi faollikni ta'minlash;

yurtimizda milliy hamda ma'naviy qadriyatlarimizga, milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy jarayonlarga taalluqli islohotlarning keng miqyosda targ'ib qilinishini, ushbu islohotlarning mazmun-mohiyatini singdirishda zarur uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishni tashkil etish;

yoshlar hayoti, bo'sh vaqti va faoliyatini o'rganish va tahlil qilish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, ular tomonidan ishlab chiqilgan istiqbolli g'oyalar va loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish;

tashqi va ichki tahdidlar hamda turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga qarshi turuvchi milliy odob-axloq me'yorlari, ularga amal qilinish holatlari bo'yicha konsepsiyalar, takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish hamda tegishli davlat hokimiyati idoralariga, nodavlat tashkilotlariga, OAV hamda nashrlar muassislariga takliflar kiritish ishlariga umumiy rahbarlik va tashabbuskorlik qilish;

tizimdagi tashkilotlarning ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy-mafkuraviy, ilmiy-madaniy saviyasini yana-da rivojlantirishga, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa dasturlar va loyihalarga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish;

ushbu nizom faoliyati doirasida boshqa idora va muassasalar hamda jismoniy shaxslar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ular bilan hamkorlikda qo'shma dastur va loyihalarni ishlab chiqish, ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshirish.

3-BOB. Kengashning huquq va majburiyatlari

12. Kengash quyidagi huquqlarga ega:

bepul ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy maslahatlar berish;

o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish;

mazkur Nizomda belgilangan vazifalarni amalga oshirish;

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda faollik ko'rsatganlarni rag'batlantirish yuzasidan takliflar berish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarni amalga oshirish.

13. Kengashning majburiyatlari:

o'z faoliyatini qonun hujjatlariga va Kengash nizomiga muvofiq amalga oshirish;

Kengash faoliyatida oshkoralikni ta'minlash;

Kengash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14. Kengash a'zolari faqat o'z majburiyatlari bo'yicha javob beradi.

4-BOB. Kengash raisi va a'zolari

15. Kengash raisi:

Raqamli texnologiyalar vaziri qoida tariqasida Kengash raisi hisoblanadi;

Kengash faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi;

Kengash yig'ilishlarini olib boradi;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishlarida Kengash nomidan ishtirok etadi;

Kengash rahbari qonunchilikka va ushbu Nizomga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Lavozimiga ko'ra, vazir o'rinbosarlari Kengash raisining o'rinbosari, Vazirning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili qonun hujjatlariga rioya etilishi masalalari bo'yicha maslahatchisi kotibi hisoblanadi.

17. Kengashga a'zolik Kengash raisi (Raqamli texnologiyalar vaziri)ning buyrug'i yoki Kengashning navbatdagi yoxud navbatdan tashqari yig'ilishi qarorlari bilan amalga oshiriladi.

18. Kengash a'zolari teng huquqli bo'lib, ularning huquqlari quyidagilardan iborat:
Kengash faoliyati to'g'risida ma'lumot olish;
Kengash tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish;
Kengashning faoliyati bo'yicha takliflar berish hamda ularning ko'rib chiqilishida ishtirok etish;

19. Kengash a'zosining burchlari:
Kengash Nizomiga qat'iy rioya etish;
Kengash yig'ilishlarida ishtirok etib borish (uzrli holatlar bundan mustasno);
Kengash yig'ilishlariga puxta tayyorgarlik ko'rish va doimo hisobot berishga tayyor turish;

Kengash yig'ilishlarida qabul qilingan qarorlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.

20. Kengashning har bir yig'ilishida kotib tomonidan imzolanadigan hamda rais tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma yuritiladi.

21. Kengash kotibining huquq va majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Kengash yig'ilishlariga tahliliy materiallar tayyorlaydi.

Kengash yig'ilishi kun tartibiga ta'lim muassasalarida quyidagilarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar tahlilini kiritib boradi:

Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar tarbiyasi, natijadorligi bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, yig'ilish bayonlari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi qarorlari, Raqamli texnologiyalar vazirligining buyruqlari, Vazirlik Ma'naviyat va ma'rifat kengashi qarorlari;

Davlat dasturlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

Ushbu Nizomda ko'zda tutilmagan boshqa holatlar.

5-BOB. Yakuniy qoidalar

22. Kengashning ish rejasi Kengashning mas'ul kotibi tomonidan ishlab chiqiladi va rais tomonidan tasdiqlanadi.

23. Kengashning har bir yig'ilishi hujjatlari ikki nusxada rasmiylashtirib boriladi, ular Kengash kotibi va Vazirlikda saqlanadi.

24. Kengash yig'ilishlari bayoni bilan Raqamli texnologiyalar vazirligining ma'naviy-ma'rifiy ishlar va shu sohaga doir boshqa masalalari bo'yicha ish rejaları hamda chora-tadbirlar dasturlari, "yo'l xarita"lari tasdiqlanishi mumkin.

25. Kengashning har bir yig'ilishi bayoni Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati boshqarma va bo'limlari hamda hududiy bo'linmalari, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalarga yetkaziladi hamda ijrosi doimiy ravishda nazorat qilib boriladi.

**Raqamli texnologiyalar vazirligi
Ma'naviyat va ma'rifat kengashining
Reglamenti**

1-BOB. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament Raqamli texnologiyalar vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash)ning vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Kengash Vazirlik markaziy apparatida, shuningdek, tizimdagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning amalga oshirilishini tashkil etadi va nazorat qiladi.
3. Kengash o'z faoliyatida faqatgina Vazirga, ya'ni Kengash raisiga bo'ysunadi va o'z faoliyatida unga bo'ysunadi.
4. Kengash ishiga to'sqinlik qilish va faoliyatiga aralashish qat'iy taqiqlanadi.
5. Kengash qarorlari bayon shaklida qabul qilinib, ko'rsatma va topshiriqlari esa to'g'ridan-to'g'ri mas'ul ijro qilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida Kengash raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolanib ijroga qaratiladi.
6. Kengashning qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalari vazir o'rinbosarlari, maslahatchilari, Vazirlik markaziy apparati va hududiy bo'linmalari, tizimdagi agentlik, inspeksiya, korxona, tashkilot, muassasa, agentlik, jamiyat, kompaniya, inspeksiya uchun majburiy hisoblanadi va uning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tegishli mas'ulga nisbatan intizomiy jazo qo'llashga asos bo'ladi.
7. Kengash majlisidagi masalalar Kengash shaxsiy tarkibi ishtirokida yoki (va) ushbu Reglamentning 6-bandidagi tuzilmalar va mas'ullar ishtirokida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

2-BOB. Kengash ishini rejalashtirish va tashkil etish

8. Kengash o'z ishini normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar bilan ijroga qaratilgan hujjatlarning ijrosini tashkillashtirish maqsadida rejalashtiradi.
9. Rejalashtirish Kengash kotibi - Vazirning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili qonun hujjatlariga rioya etilishi masalalari bo'yicha maslahatchisi tomonidan tashkillashtiriladi.
10. Kengash o'z qarorlari va topshiriqlari ijrosi yuzasidan Vazirlik markaziy apparati va hududiy bo'linmalari, tizimdagi korxona tashkilotlardan ma'lumotlar oladi.
11. Kengash qarori og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin.

12. Kengash kotibi Kengash tarkibini Kengash majlisi o'tkazilishi belgilangan vaqt va joyi hamda majlis o'tkazilish tartibi, shuningdek, kun tartibidagi masala bo'yicha xabardor qiladi.

3-BOB. Masalalarni Kengashga kiritish, shuningdek, ularni tayyorlash va ko'rib chiqish tartibi

13. Kengash o'ziga yuklangan vazifalarga oid masalalarni ko'rib chiqadi.

14. Kengash o'z ishini nizom asosida tashkil qiladi.

15. Kengash majlisi vaqtida kun tartibidagi masala bo'yicha Kengash kotibi yoki masul shaxs tomonidan Kengash shaxsiy tarkibiga tushuntirish beradi.

16. Kengash shaxsiy tarkibi Kengash kotibi yoki masul shaxsning tushuntirishlari va u tomonidan taqdim qilingan hujjatlar va materiallarni ko'rib chiqib, o'zlarining fikr-mulohazalarini bayon etadi.

17. Kengash majlisi borishi haqida Kengash kotibi tegishli bayon rasmiylashtiradi va rasmiylashtirilishini ta'minlaydi.

4-BOB. Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini tashkil etish va ularni nazorat qilish tartibi

18. Kengash qabul qilgan qaror ijrosi va nazorati Kengash kotibi tomonidan amaldagi qonunchilik hamda vazirlik hujjatlari asosida tashkillashtiriladi.

19. Kengashning ushbu bobda nazarda tutilmagan masalalar bo'yicha qarorlari ijrosi Kengash kotibi tomonidan odatdagi tartibda nazoratga olinadi.